**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS**

**TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Fizika –matematika fakulteti “Axborot texnologiyalari” kafedrasi

**Mudirova Maysara Musajonovna**

# Universitet informatsion tizimida ilmiy anjumanlarda professor o’qituvchilarning ishtirokini qo’llab quvvatlovchi modulini yaratish.

5480100-“Amaliy matematika va informatika” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“Ish ko‘rildi va himoya qilishga ruxsat berildi”**

**Kafedra mudiri.**

**___________ dots T.B.Boltayev**

**«______» __________________2016 y.**

**Ilmiy rahbar ________ Z.SH.Jurayev**

**“_______” _________________2016 y.**

**Taqrizchi _____________**

**“_______” ____ __________ 2016 y.**

**“Himoya qilishga ruxsat berildi”**

**Fakultet dekani __________ Sh.M.Mirzayev**

**“_______” ______________ 2016 y.**

**Buxoro-2016**

MUNDARIJA

**KIRISH**……………………………..………....……………………........3

**I BOB. Ilmiy anjumanlarda professor o'qituvchilarning ishtirokini qo'llab quvvatlovchi modulni yaratish..........................................................10**

1.1. O'qituvchilarning anjumanlarda ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi modulining mavjud tizimi........................................................................10

1.2. O'qituvchilarning anjumanlarda ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi modulining dasturiy tizim maqsad va vazifalari...................................................11

1.3. O'qituvchilarning anjumanlarda ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi modulini yaratish uchun kerakli ma'lumotlar...................................................14

1.4.HTML va ASP haqida........................................................................16

**II BOB. O'qituvchilarning ilmiy anjumanlarda ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi modulining dasturiy loyiha tizimi..……….…………….…..……......25**

2.1. O'qituvchilarning anjumanlarda ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi modulini yaratish ma'lumotlar ombori..............................................................25

2.2. O'qituvchilarning anjumanlarda ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi modulining dasturiy tizim arxitekturasi.............................................................40

2.3. O'qituvchilarning anjumanlarda ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi modulini yaratish rollari ........................... ....................................................45

2.4. Foydalanuvchi interfeyslari.................................................................45

2.4.1. O`qituvchi interfeysi ……………………………..………...……47

2.4.2. Rahbariyat interfeysi………..…………………… . ......................49

**Xotima**.....................................................................................................55

**Foydalanilgan adabiyotlar**.......………………………………………….....56

**Foydalanilgan web-saytlar**......................................................................57

# KIRISH.

**“Biz o’z istedodli, fidoiy bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho’qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak.”**

**I.A. Karimov**

Hozirgi davrda biron bir faoliyat sohasini axborot – kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Har bir mutaxasis u qaysi sohada ishlashidan qat`iy nazar o`z vazifasini zamon talabi darajasida bajarilishi uchun axborot ishlab chiqaruvchi vositalar va ularni ishlash prinsipi haqida chuqur bilimga ega bo’lishi zarur. Informatsoin texnologiyaning rivojlanishi va axborot oqimlarining tobora ortib borishi, ma’lumotlarning tez o’zgarishi kabi holatlar insoniyatni bu ma’lumotlarni o’z vaqtida qayta ishlash choralarining yangi usullarini qidirib topishga undamoqda. Informatsion texnologiya-obyekt, jarayon yoki hodisa holati haqida yangi sifatdagi ma`lumotlarni olish uchun foydalanadigan ma`lumotlarni yig’ish, ishlov berish va uzatish vositalari, hamda usullari majmuasidir.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslari bilan 2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga tatbiq etilmoqda. O‘zbekistonda xalqaro huquq me’yorlarini hisobga olgan holda, AKT sohasidagi milliy qonunchilik muntazam takomillashtirilmoqda. Ushbu qonunchilik bugun mualliflik va boshqa turdosh huquqlar, elektron imzo, tijorat, to‘lovlar, hujjat aylanishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solmoqda. Axborot xavfsizligini ta’minlash iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishning milliy ustuvorliklarini

hurmat qilish tamoyillari asosida ochiq axborot jamiyatini tashkil etishda muhim masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotlashtirish xizmatlarining yangi turlarini rivojlantirish va boshqaruvning huquqiy asoslarini ta’minlash maqsadida 2003-2004 yillarda O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida” va “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunlarini, shuningdek, yangi tahrirdagi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildi.

2005 yil 2-iyunda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to’g’risida”gi qarori qabul qilindi. Bu qarorlarning davomi sifatida O’zbekiston Respublikasi “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to’g’risida” qonuni 2012-yil 12-dekabrda qabul qilindi. Usbu qonun 16 moddadan tashkil topgan bo’lib, unda ushbu qonunning asosiy vazifalari, axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to’g’risidagi qonun hujjatlari, axborot erkinligining asosiy prinsiplari axborotning ochiqligi va oshkoraligi, axborotni olish tartibi, shaxsning, jamiyatning, davlatning axborot borasidagi xavfsizligi, shu kabi bir qator moddalarni o’z ichiga olgan. Inson uchun axborotlarni to’plashda uning barcha sezgi organlari xizmat qilsa, uzoq masofadagi axborotlarni to’plash uchun bu esa yetarli emas, buning uchun maxsus texnik vositalar talab qilinadi. [1]

Dunyoning taraqqiy topgan mamlakatlarida «Elektron hukumat» milliy tizimini faol tatbiq qilinmoqda. Bu tizim davlat tuzilmalarini boshqarishni, davlat va tadbirkorlar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash orqali biznes-jarayonlarni samarali rivojlantirishni ta'minlabgina qolmay, fuqarolarga davlat xizmatlarini internet orqali hammabop interaktiv shaklda taqdim etish imkonini ham yaratadi.

Mamlakatimizda ham bir necha yillardan buyon, maqsadli ravishda interaktiv davlat xizmatlarini aholi va yuridik shaxslarga davlat organlari veb-saytlari va

O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali orqali taqdim etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilmoqda. 2007-yildayoq 49 ta Bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reestri (BIDXR) tasdiqlangan edi. 2009- yilda u 94 taga kengaytirilgan bo‘lib, hozirda esa BIDXR 195dan ziyod ko‘rinishni qamrab oladi.

Mamlakatning 2012-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2013-yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan 2013-yil 18- yanvardagi Hukumat majlisida Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatda «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish Konsepsiyasi va kompleks dasturini ishlab chiqish muhimligini qayd etib o‘tgandi.

Davlat organlari rahbarlari va mutaxassislaridan tuzilgan maxsus ishchi guruhi tomonidan mazkur yo‘nalishda dunyo yetakchisi bo‘lmish Korea Respublikasi va boshqa xorijiy mamlakatlarning «elektron hukumat» borasidagi ilg‘or tajribalarini olinib, «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish bo‘yicha Konsepsiya va Kompleks dasturni, shuningdek, 2013-2017 yillarda O‘zbekiston Respublikasida Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish Kompleks dasturini ishlab chiqish amalga oshirilmoqda.

Loyihalarni ishlab chiqishda korealik va boshqa xorijiy ekspertlar faol qatnashmoqdalar, ushbu yo‘nalish bo‘yicha O‘zbekistonning turli vazirliklari va idoralari mutaxassislari bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar, seminarlar va yig‘ilishlar o‘tkazilapti.

Ishlab chiqilayotgan O‘zbekiston Respublikasida 2013-2017 yillarda «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish bo‘yicha Konsepsiya va Kompleks dastur davlat organlarining o‘zaro va aholi hamda tadbirkorlik subyektlari bilan munosabatlarining bugungi holati va yo‘nalishlarini inobatga olgan holda, «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha asosiy vazifalarni belgilaydi. Bu borada Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: “Bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida internet va

boshqa global axborot tizimlaridan foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”. [2] Universitetdagi mavjud tizimda ya’ni Buxoro Davlat Universiteti saytidan (BuxDu.uz) universitet haqidagi ma’lumotlarni ko’rishimiz munkin. Bu tizimda universitetdagi barcha yangiliklar, e’lonlar, tadbirlar bo’yicha malumotlar olishimiz munkin. Universitetda mavjud tizimda ko’plab qog’ozda bajaraladigan ishlarini avtomatlashtirish, ya’ni zamon fan texnika taraqqiyoti talabiga mos bo’lgan axborot, kompyuterlashtirish, hisoblash texnikasi, axborot texnologiyasi, modellash, ma’lumotlar manbai, dasturlashtirish, shaxsiy kompyuterlar, dastur bilan ta’minlash va boshqa shu kabi ilmiy tushunchalar jamiyatni axborotlashtirishning eng muhim xususiyatlarini ifoda etadi. O’quv jarayonini qo’llab quvvatlovchi tizimida, onlayn qaydnoma modul tizim 2013-2014 o’quv yilining birinchi semestridan boshlab amalda qo’llanilmoqda. Ushbu modul tizimining qulayligi shundaki, o’qituvchilar talabalarning reyting ballarini elektron qaydnomaga joylashtiriladi. Onlayn qaydnomada rahbariyat, dekanat, kafedra, o’qituvchi, talabalar uchun alohida-alohida interfeyslari mavjud bo’lib, ular himoyalanilgan. Masalan o’qituvchi interfeysi foydalanish uchun har bir o’qituvchilarga login va parol berilgan. O’qituvchi interfeysida o’qituvchi ismi, familiyasi, otasining ismi yozilgan bo’ladi. Bu bo’limda

- Baholash bunda o’qituvchi qaysi guruhlarda dars o’tsa, o’sha guruhlarga har bir semestrdagi talabalarning reyting baholarni qo’yib boradi.
- O’qituvchi yuklamasida esa o’qituvchining bir semestr davomida necha soat dars o’tishi, va guruhlarda o’tiladigan ma’ruzalar, amaliyotlar, labaratoriyalar, mustaqil talim soatlari kiritilgan bo’ladi.
- Dars jadvalida o’qituvchi hafta kunini tanlaydi so’ng o’sha kunda o’qituvchiga qaysi guruhda dars qo’yilganligi chiqadi.
- Yangiliklar

- Xabarlar
- Modullar
- Semestrlar
- Parolni o’zgartirish
- Chiqish bo’limlari mavjud.

Talabalar uchun maxsus interfeys yaratilgan bo’lib, u “Talaba” deb nomlangan. Bu ham himoyalangan bo’lib, login va parollar yordamida kiriladi. Login bu har bir talabaning maxsus kodi. Talaba o’qishga qabul qilingandan so’ng talaba ma’lumotlari tizimga kiritiladi. Talaba ma’lumotlari tizimga kiritilgandan so’ng talabaga beriladi. Ushbu maxsus kod qaytib boshqa talabaga berilmaydi. Talaba birinchi marta tizimga kirish uchun talaba paroli talaba maxsus kodi bilan bir xilda bo’ladi. Talaba tizimga kirganda talaba parolini o’zi almashtiradi. Talaba paroli esdan chiqqan hollarda dekanat tomonidan talabaga paroli o’zgartirib beriladi. Maxsus kod fakultetning o’quv bo’limi tomonidan beriladi. Parol esa barcha talabalar tomonidan kiritiladi. Talaba bo’limida talabaning ism,familyasi va otasining ismi yoziladi. Bu bo’limda

- Semestr
- Fanlar
- Dars jadvali
- Parolni o’zgartirish bandlari mavjud.

“Elektron qaytnoma” talabalarning barcha semestrlar davomida olingan ballari, o’tilgan fanlar ro’yxati, fanlarning soatlar ro’yxatini ko’rishimiz mumkin. Ushbu tizim hozirgi kunda o’quv yurtida kechadigan informatsion jarayonlarni avtomatlashtirish ustida ko’plab ishlar olib borilmoqda. Shu jumladan mening bitiruv malakaviy ishim ushbu tizimga **o’qituvchilarning anjumanlarda ishtirokini qo’llab-quvvatlovchi modulini yaratish** masalasi qo’yilgan. [13]

**Bitiruv malakaviy ish mavzuning dolzarbligi:** Ilmiy anjumanlarning maqsadi va vazifasi ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikning istiqbollarini muhokama qilish, rivojlantirish yo`llari, tajribalar va tendentsiyalari haqida fikr almashish. Shuni inobatga olib professor o`qituvchilarni ilmiy, amaliy anjumallarda qatnashishini qo`llab quvatlovchi modulini yaratish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Universitetda mavjud tizim ma’lumotlaridan foydalangan holda professor o’qituvchilarning ilmiy anjumanlarda ishtiroki modulini yaratish .

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Ma’lumotlar bazalari haqidagi bilimlarga ega bo’lgan holda, jadvallar ustida bajarishimiz mumkin bo’lgan amallarni bajarish. ASP texnologiyasini o’rganish. Anjumanlar ustida bajariladigan jarayonni avtomatlashtirish natijasida ma’lumotlarni kiritish, o’zgartirish, xatoliklarni oldini olish, ma’lumotlarni tartibli saqlash, o’qituvchilar va rahbariyatga qulay interfeyslar yaratish ularning vaqtini tejashdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishimizning o`rganilganlik darajasi:** Bitiruv malakaviy ishimni yozish natijasida ASP texnologiyasi HTML teglari va atributlari,shuningdek SQL SERVER va ma’lumotlar bazasi haqida chuqurroq bilimga ega bo’ldim. Universitetda joriy qilingan modul tizimi haqida ma’lumotga ega bo’ldim.

**Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti:** Universitetning professor o`qituvchilari ilmiy anjumanlarda ishtiroki bitiruv malakaviy ishning predmeti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning ob`ekti:** Universitetda mavjud tizim bilan bog’langan o’qituvchilar ilmiy anjumanlarda ishtiroki modulini yaratish. O’qituvchilar ilmiy anjumanlarda ishtirokida anjumanlar , o’qituvchilar,maqolalar bitiruv malakaviy ishimizning obyekti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy farazi:** Universitetda mavjud tizim bilan bog’langan o’qituvchilarning anjumanlarda ishtiroki modulini tadbiq qilish.

**Bitiruv malakaviy ishimizning yangiligi:** Universitet informatsion tizimida ilmiy anjumanlarda professor o’qituvchilarning ishtiroki modulini yaratish.

**Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati:** Bu dastur online tarzda ishlagani sababli professor-o’qituvchi ilmiy anjumanlar haqida ma’lumotlarni internet tarmog’i orqali ixtiyoriy joydan turib ko’rishi va qatnashishi haqidagi ma’lumotlarni kirtishi. O`tkaziladigan ilmiy amaliy anjumanlarni haqidagi ma’lumotlar bilan professor o`qituvchilarni oldindan xabordor qilinishi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asoslari:** WEB arxitektura va SQL tili.

**Bitiruv malakaviy ishimizning tarkibi va hajmi:** Kirish, 2 ta bob, adabiyotlar ro’yxati va xotimadan iborat holda bayon qilingan. Yaratilgan dasturiy tizimni mavjud tizimda ishlatib olingan asosiy natijalarga ma’lumotlar keltirilgan bo’lib ____ betdan iborat.

# I BOB. ILMIY ANJUMANLARDA PROFESSOR O'QITUVCHILARNING ISHTIROKINI QO'LLAB-QUVVATLOVCHI MODULINI YARATISH .

## 1.1. O'qituvchilar ilmiy anjumanlarda ishtiroki moduli mavjud tizimi.

Professor o`qituvchilar o`zlarining ilmiy ishlaridagi yangiliklar , yutuqlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shu soha vakillari bilan o'rtoqlashishlari, ularning fikirni bilishlari asosan ilmiy anjumanlar orqali amalgam oshiriladi. Universitet professor o`qituvchilarning aksariyat qismi o'z sohasi borasida doimiy harakatda bo'lib ,izlanishlar olib borib, ilmiy ish qilib boradi. Ular o'zlarining sohalariga oid ilmiy anjumanlarda, yig'inlarada ishtirok etib, fan yangiliklaridan xabardor bo'lib turadilar. Bunday ilmiy anjumanlar barcha Oliy Ta'lim Muassasalarida o'tkaziladi. Bizning Buxoro davlat universitetimizda shu yo'nalishda Ilmiy bo'lim ish olib bormoqda. Bunda anjumanlarni tashkil qilish, ularni o'tkazish, qatnashuvchilarni xabardor qilishda kamchiliklarga va qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Bundan tashqari professor o'qituvchilar o'z sohalari bo'yicha o'tkazilayotgan boshqa anjumanlar haqida xabardor bo'lishlari, uni qayerda ,qachon o'tkazilishi, qatnashish shartlari kabi ma'lumotlarni to'plashlari uchun ancha vaqt va ovvoragarchilik talab qilinadi. Hozirgi vaqtda ma'lumotlarni to'plash aksariyat hollarda qog'oz variantda yurgizilyapti. Ma`lumotlarni yig`ishni osonlashtirish va kamchiliklarni oldini olish uchun avtomatlashtirilgan tizim ishlab chiqilmagan. Shu sababli Ilmiy bo'limga anjumanlarni o'tkazish to'g'risida Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligidan bildirish xati yuboriladi. Shu xat asosida Ilmiy bo'lim kafedralarga murojaat qiladi. Kafedra e'lonlar doskasida anjuman haqida e'lon beriladi. O'qituvchuilar anjuman haqida shu joydan xabar topadi. Anjumanda qatnashmoqchi bo'lgan o'qituvchi kafedra mudiriga murojaat qiladi. Bunda o'qituvchi quyidagi ma'lumotlarni taqdim etadi:

- o'qituvchi ismi, familiyasi, otasining ismi;
- ilmiy ish nomi;

- nashriyot, jurnal nomi, yili, soni, mualliflik guvohnomasining tartib raqami va ularning nusxalari;
- ilmiy ish bet soni;
- muallifdosh familiyasi, ismi, otasining ismi uning ulushi.

Kafedra mudiri anjumanda ishtirok etmoqchi bo’lgan o’qituvchilarning ro’yxatini, ma’lumotlarini to’plab ilmiy bo’limga qog’ozga chop etgan holda va elektron variantda taqdim etadi. Ushbu jarayonda ko’plab kamchiklarga duch kelinmoqda. Masalan kafedradagi barcha o’qituvchilarning anjumanga ishtiroki haqidagi ma’lumotlarni yig’ib bo’lmasligi, buning sababi - o’qituvchining boshqa binoda darsi bo’lishi yoki xizmat safarlarida bo’lishi munkinligi. U holda barcha o’qituvchilarning anjumandan xabardor bo’lishi ,shu sohaga qiziquvchi barcha o’qituvchilarning to’la ishtiroki ta’minlanmay qoladi.Natijada anjumanda ishtirok etuvchilar qamrovi ko’lami torayadi,ma’lumotlar to’liq holda bo’lmaydi. Har bir kafedra o’qituvchilar ma’lumotlarini ilmiy bo’limga taqdim etguncha ko’p vaqt sarflanadi. O`qituvchilar anjumanlarda ishtiroki mahsus tizimi yaratilmasa ushbu ma`lumotlar tartibsiz va har xil joylarda saqlanadi.Buning natijasida kerakli hisobotlarni tayyorlash juda katta vaqt talab qiladi va to`liq hisobotni shakkilantirib bo`lmaydi. Ushbu hisobotlar universistet reytingini aniqlashda juda ham muhim malumot hisoblanadi. [12]

## 1.2. O’qituvchilar anjumanlarda ishtiroki dasturiy tizim maqsad va vazifalari.

O’qituvchilarning anjumanlarda ishtiroki haqidagi umumiy ma’lumotlarni yig’ish uchun vaqt ko’p sarflanmoqda. Chunki Ilmiy bo’lim tomonidan bu ma’lumotlarni yig’ish uchun ancha joyga murojaat qiladi. Bundan tashqari anjumanda qatnashmoqchi bo’lgan o’qutvchilar anjumanni tashkillashtirishidagi kiritilgan o’zgartirishlardan bexabar qolishlari, xabardor bo’lishlari uchun esa Ilmiy bo’limga murojaat qilishi lozim. Agar Ilmiy bo’lim ham xabardor bo’lmasa anjumandagi o’zgarishni bilolmasligi mumkin.Shunday anjumanlarni

tashkillashtirish , ularni o’tkazish, unda ko’riladigan masalalar yuzasidan qatnashuvchi professor o’qituvchilarning ishtirokini ta’minlash –bugungi kunda ta’lim tizimining eng muhim masalalaridan hisoblanadi.

Anjumanda qatnashmoqchi bo’lganlar anjuman qayerda o’tkazilishi , qachon o’tkazilishi, qanday mavzular ko’rilishi , kimlarning maqolalari, qilgan ishlari anjumanlarda ishtiroki ko’rib chiqilishi kabi ma’lumotlarni aniqlashlari uchun ancha vaqt kerak bo’ladi. Buning uchun ular bir nechta tegishli joylarga murojaat qilishlari , bu uchun ham anchagina vaqt,mablag’ sarflashlari kerak bo’ladi. Ushbu modulni yaratishning asosiy sababi ,qatnashuvchilarning vaqtlarini tejash, anjuman ma’lumotlarini aniqlashda bo’ladigan ovvoragarchiliklarning oldini olishdan iboratdir.

Ushbu muammoni yechish maqsadida hamda o’qituvchilarning anjumanlarda ishtiroki bo’yicha umumiy ma’lumotlar bazasini yaratish maqsadida mavjud tizim bilan bog’langan o’qituvchilar anjumanlarda ishtiroki modulini yaratishga kirishdik . Universitet informatsion tizimida ilmiy anjumanlarda professor o’qituvchilarning ishtirokini qo’llab-quvvatlovchi modulini yaratishning asosiy maqsadi HTML tili, ASP tili, SQL Server dasturi yordamida modul yaratishdir. O’qituvchilar anjumanlarda ishtiroki ma’lumotlar bazasini yaratishda bizga conf_direction (yo’nalishlar ), conference (anjuman) , conferen_universityes (anjuman universitetlari), participant (qatnashuvchi), universities ( Oliy O’quv Yurtlari), addresses (manzillar), conference_specialties (anjuman yo’nalishlari), conf_section (anjuman seksiyalari) ,county(davlat)kabi jadvallar kerak bo’ladi.

Jadvallar bilan ishlash uchun malumotlar bazasini boshqarish tizimi sifatida, ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi SQL tanlab olindi. Bu tizimini lokal va global tarmoqda ishlashni ta`minlash maqsadda foydalanuvchilar interfeysini chiroyli interfeysda hosil qilish uchun ASP texnologiyasidan, web dasturlash tillaridan foydalanamiz. SQL va ASP dasturiy obyektni ishlab chiqishda asosiy

manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, professor o`qituvchilar ilmiy anjumanlarda ishtirokini avtomatlashtirish orqali ko'pgina qulayliklar yaratildi:

- istalgan paytda istalgan joyda internet global tarmog'i yoki ta`lim muasasasi lokal tarmog`i orqali o'qituvchi o'zining yangi anjumanlarda ishtiroki haqida to'liq ma'lumot kiritishi;
- o'qituvchi kiritgan ma'lumotlar mavjud ma'lumotlar omboriga tartibli saqlanadi;
- ilmiy bo'lim o'qituvchilar anjumanlarda ishtiroki, anjumanlar haqida ma'lumot, anjumanlarda chop etilgan ilmiy ishlar bo'yicha to'liq hisobotlarni xoxlagan vaqtda olishlari mumkin;
- vaqtning tejalishi, ish sarfi kamayishi va xatoliklarni oldini olish;
- tizimdagi foydalanuvchilarga ruxsat berilgan bo'lsa shularning barchasi o'qituvchilarning ilmiy ishlarini ko`rib, elektron nusxasini olib bilishi, ushbu ilmiy ishlar,anjuman tafsilotlari bo'yicha o'z fikr va xulosalarini bildirib o'tishi mumkin;
- foydalanuvchilar uchun qulay intefeysli muhitni yaratib berishni ta'minlash.

Bundan ko'rinib turibdiki kompyuter inson imkoniyatlarini yanada kengroq oshiruvchi vosita bo`lib xizmat qilishi, vaqtining tejalishiga imkon yaratadi, chunki har qanday mutaxassis ham bu kabi katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashda xatoliklarga yo`l qo`yishi mumkin bo'lgan holdir. Yuqorida bajarilayotgan ish qilingan xatoliklarni oldini olish, tuzatish jarayoni ancha tez amalga oshiriladi. Chunki agar bu o'qituvchilar anjumanlarda ishtiroki qog'oz variantda bo'lsa uni yana qaytadan yozishga to'g'ri keladi. Bunda asosan vaqt tejalishi bilan birgalikda qog'ozda bajariladigan ishlarning kamaytirishga imkon yaratadi, ancha miqdorda sarf xarajatlar tejaladi. Yuqorida aytib o'tilgan tizimning qulaylik taraflarini hisobga olgan holda avtomatlashtirilgan o'qituvchilar anjumanlarda ishtiroki yaratilib Universitetda mavjud tizimda amaliyotda

qo'llanmoqda. Ya'ni bu tizim www.buxdu.uz saytida joylashtirilgan bo'lib,bu jarayonni o'qituvchilar, talabalar yoki foydalanuvchilar o'zlari kirib xoxlagan o'qituvchilar anjumanlarda ishtirokini ko'rishlari yoki ularni ilmiy ishlari elektron nusxalarini olishi mumkin. Bu tizimning yana bir qulaylik taraflaridan biridir. [13]

## 1.3. O'qituvchilar anjumanlarda ishtiroki modulini yaratish uchun kerakli ma'lumotlar.

O'qituvchilar anjumanlarda ishtiroki modulini yaratish uchun bizga conference (anjuman), conf_direction (yo'nalishlar ), conferen_universityes (anjuman universitetlari), participant (qatnashuvchi), universities ( Oliy O'quv Yurtlari), addresses (manzillar), conference_specialties (anjuman yo'nalishlari), conf_section (anjuman seksiyalari),country(davlat) kabi jadvallar kerak bo'ladi.

**Conference jadvali yaratishda quydagilardan foydalanami:**

- tartib raqami;
- anjuman nomi;
- anjuman nomi(ruscha);
- anjuman nomi(inglizcha);
- qachondan boshlanadi;
- qachon tugaydi;
- qayerda o'tkaziladi;
- maqolani qachondan yuborish;
- maqolani qachongacha yuborish;
- chop etilganligi;
- to'lov to'lash;
- sanasi ;
- maqola shartlari.

**Yo'nalishlar jadvaliga quyidagilar kiradi;**

- tartib raqami;
- yo'nalish nomi;
- yo'nalish nomi(ruscha);
- yo'nalish nomi(inglizcha).

**Anjuman yo'nalishlar jadvaliga quyidagilar kiradi;**

- tartib raqami;
- anjuman nomi ;
- yo'nalish nomeri.

**Anjuman universitetlari jadvaliga quyidagilar kiradi;**

- tartib raqami;
- anjuman nomi;
- universitet nomeri.

**Qatnashuvchi jadvaliga esa quyidagilar kiradi** :

- tartib raqami;
- qatnashuvchi nomi ;
- maqola nomi;
- maqola;
- chop etilishi;
- sanasi;
- anjuman nomi;
- ma'ruza qilinganligi;
- tasdiqlanganligi;
- tasdiqlangan sanasi.

**Universitetlar jadvaliga esa quyidagilar kiradi** :

- tartib raqami;
- universitet nomi ;
- manzil;
- manzil 2.

**Manzillar jadvaliga esa quyidagilar kiradi** :

- tartib raqami;
- manzil nomi ;
- super manzil.

**Davlatlar jadvaliga esa quyidagilar kiradi** :

- tartib raqami;
- davlat nomi;

**Anjuman seksiyalari jadvaliga esa quyidagilar kiradi** :

- tartib raqami;
- anjuman nomi ;
- seksiya;
- izohlar.

Yuqoridagi ma'lumotlarning barchasi birgalikda o'qituvchilar anjumanlarda ishtiroki tuzilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida qayd qilib o'tilgan ma'lumotlar va shakllarni to'ldirish ko'p vaqtni talab qiladi. Shuningdek mehnat

sarfi qog’oz istirofi yuzaga keladi. Shu kamchiliklarni oldini olish va elektronlashtirish maqsadida o’qituvchilar ilmiy anjumanlarda ishtirokini avtomatlashtirish masalasi joriy qilindi. O’qituvchilar anjumanlarda ishtiroki haqidagi ma’lumotlar bilan ishlash uchun ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT)dan SQL tili tanlab olinadi. Dasturiy mahsulotni ishlab chiqishda ASP va SQL tili asosiy manba hisoblanadi.Yaratilishi ko’zda tutilgan o’qituvchi kartasining MBBT ga qo’yiladigan talablar ham shakllantirildi.

## 1.4. HTML va ASP haqida

O’qituvchilar ilmiy anjumanlar web dasturlash qismida HTML tili va ASP texnologiyasidan foydalandim.

HTML (ing.Hypertext Markup Language gipermatnli belgilash tili) - bu SGMLga (Standard Generalized Markup Language standart umumlashtirilgan belgilash tili) asoslangan va xalqaro ISO 8879 standartiga mos keluvchi til, xalqaro to'rda ishlatiladi. Gipermatnlar tili (HTML) web-brauzerlar ekraniga ma'lumotlarni standart kodlar orqali chop etish imkoniyatini beradi. HTML dan foydalanib o’zida taxrirlangan matn, tasvir, multimediya elementlarini aks ettirgan veb-saxifalarni yaratish mumkin. HTML ni dasturlash tillaridan farqlash lozim. HTML ni veb-brauzerlarga matn yoki tasvirlarni qay holatda chop etish ko’rsatmalar nabori deyish ham mumkin.

**HTML sahifa** - bu oddiy text fayl bo'lib, html qisqartmasiga ega. HTML sahifani yaratish uchun maxsus dastur shart emas. Matn tahrirlovchi har qanday dastur orqali HTML sahifa yaratish mumkin. Ana shunday matn tahrirlovchi oddiy dasturlardan biri bo'lgan Notepad (Блокнот), Windows muhitida ishlovchi har bir kompuyterda mavjud. HTML sahifaning asosiy elementlaridan biri bo'lgan Teglar haqida dastlabki tushunchaga ega bo'lsak.

**HTML TEG:**Bu HTML hujjatdagi turli elementlarni (matn, tasvir va boshqalar) web sahifada qanday ko'rinishda aks ettirish lozimligini brauzerga ko'rsatuvchi komandalar. Teglar ma’lum o'lcham va vazifani bajaruvchi komandalardir.

Teg quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

<TEG>hujjat elementi</TEG>

**Bgcolor –**sahifaning fon rangini o’rnatish. Uning qiymatini 3 usulda ko’rsatish mumkin. Rang nomini satr ko’rinishida qo’sh tirnoq ichiga yozish bgcolor= "yellow" yoki rangning kodini ko’rsatish bgcolor= FF0000, yoki rangning o’zini tanlash orqali qiymat berishimiz mumkin.

**Background** –kiruvchi. sahifaga rasm qo’yish. Rasm manzilini ko’rsatish

**Text**-sahifaning yozuv rangini o’rnatish.

**Link**-giperssilkaning rangini o’rnatish;

**Vlink**-giperssilkaga murojaat bo’lgandan keyin uning rangini o’zgarishini o’rnatish;

**Alink**-giperssilka ustiga sichqoncha borganda uning rangini o’zgartirishni boshqarish;

**<BR>**- yopiluvchi tegni talab qilmaydi. Bu keyingi satrga o’tishni ta’minlovchi teg hisoblanadi.

***<BUTTON>…</BUTTON>***-bu tugma yaratish tegi hisoblanadi. Yopiluvchi tegni yozish majburiy. Bu tegga tegishli atributlar quyidagilar:

**Disabled**- tugma ishlamaganda… ya’ni tugma taqiqlangan

**Style**-tugmaga stil berish. Masalan, tugma o’lchami, rangini;

**Title** –tugma haqidagima’lumotni ko’rsatish;

**Type**-tugma tipi;

**Name –**tugma nomi

**Onfocus** –element fokuslanganda yuz beradi

**Onblur**-element fokusi yo’qolganda sodir bo’ladi

**Onselect –**element matni tanlanganda

**Onchange** –element qiymati o'zgarganda

**Onclick** –element bosilganda

***<center>…</center>-*** bu teglar orasidagi barcha ma'lumotlar sahifa markazidan joylashadi.

***<font>…</font>*** -tegi kiritish shrift rangini va hajmini belgilaydi. Bu tegning atributlari quyidagilar:

**Color** –yozuv rangini o'rnatish

**Face**-shrift garniturini belgilaydi.

**Size** – yozuv o'lchamini kiritish 1 dan 7 gacha. 1- juda ham kichik shrift. Jimlikda 3 ga teng.

***<FORM>…</FORM>***- bu teg orqali biz ma'lumotlarni kiritish va serverga yuborish imkonini qo'lga kiritamiz. Bu tegning atributlari quyidagilar:

**Action** – formaning malumotlarini uzatuvchi adressni ko'rsatamiz;

**Method** -formaning ma'lumotlarini uzatishning turini ko'rsatamiz. Bu ikki xil bo'lishi mumkin. GET va POST. GET uzatishda ma'lumotlarimiz ochiq holda uzatiladi. POST uzatishda esa ma'lumotlarimiz yashirin tarzda uzatiladi.

**Name** – formaning nomini kiritish

**Enctype** –fayl tipi(formaga murojaat qilish uchun)

**Accept-** bo'lishi mumkin bo'lgan fayllar tiplari

**Accept –charset** –kodlashtirishlar (bo'lishi mumkin bo'lgan simvollarni kodlash usullari)

**Target** –freym (natijalarni hosil qilish uchun freym)

**Onsubmit** –formani jo'natish senariysi

**Onreset** –formani qaytadan o'rnatish senariysi

***<HEAD> …</HEAD>*** - sahifaning bosh qismi hisoblanadi.Hujjatda tasvirlanmaydigan har xil ma'lumotlarning joylashish o'rnini ko'rsatadi. Bu yerda hujjatning nomlanish tegi va qidiruv mashinalari uchun teg joylashadi. Bundan tashqari JavaScript funksiyalari ham shu yerda joylashadi.

***<META>***-tegi meta ma'lumotlarni hosil qilish uchun ishlatiladi. Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

*<meta name =”Auther”content=”Bu meniki!!!”>*

Meta ma'lumotlar asosan Internetda joylashgan qidirish mashinalari uchun zarur. Web sahifalar haqidagi ma'lumotlarni qidirish mashinalari meta o'zgaruvchilardan oladi.<meta> tegida Keymards –o'zgaruvchili Web sahifadagi kalitli so'zlar ro'yxatini o'zida saqlaydi, description esa Web sahifaning qisqacha ma'lumotini o'zida saqlaydi.

***<I>…</I>***-qiya yozuv hosil qilish tegi bo'lib hisoblanadi.

***<IMG />*** -bu teg orqali sahifaga rasm joylashtirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu teg ayni paytda GIF, JPG, JPEG, PNG farmatli rasmlarni qo'llab quvvatlaydi. Qo'yiladigan rasmga ssilka ham qo'yish mumkin. Buning uchun quyidagicha ish bajariladi:

<a href=ssilka adresi><img src=”rasm nomi”></a>

Bu tegda quyidagi atributlarni ishlatish mumkin:

**Src**-majburiy atribut, rasm manzilini ko'rsatish;

**Align-** rasmni sahifada joylashishini boshqarish. Masalan:**left**-sahifaning chap qismiga joylashtirish, **right-** sahifaning o'ng tomonidan joylashtirish, **center** –markazdan, **bottom** – pastdan joylashtirish, **top** – yuqoridan joylashtirish, **middle** –o'rtasidan joylashtirish;

**Alt** –rasmga matn yozish. Agar brauzer rasmni qo'llab quvvatlamasa, shu matn chiqadi.

**Border** – rasm atrofiga ramka o'rnatish. Jimlikda ramka mavjud bo'lmaydi.

**Height** –rasm balandligini kiritish, piksellarda yoki foizlarda ko'rsatiladi. Brauzer sahifani yuklayotganda bu parametrlarni o'rnatadi.

**Width-** rasm kengligini kirituvchi atribut unda qiymat piksellarda yoki foizlarda ko'rsatiladi.

***<INPUT />-*** tegining maqsadi yangi element yaratish. Yaratiladigan elementni **type** atributidagi qiymat orqali aniqlaymiz. Bu toq teg hisoblanadi.

**Type** atributi qiymatlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

**Text** – matn kirituvchi yangi soha hosil qilish;

**Password** – matn kirituvchi yangi soha hosil qilish, kiritilgan ma'lumotlar yulduzcha belgisi ostiga yashirinadi. (*) qisqasi parol kirituvchi obyekt.

**Checkbox** –bir nechtasini belgilashga imkon beruvchi belgilash obyekt yaratish;

**Radio** – faqat bittasini belgilashga imkon beruvchi belgilash obyektini yaratish;

**File** – muayyan joydagi fayl elementini yaratish. Masalan, "Обзор" tugmasini bosganimizda ochiladigan "Выборфайла"oynasi.

**Hidden** – ko'rinmas element yaratish. Yuborilgan ma'lumotlarni saqlovchi ko'rinmas obyekt sifatida foydalanish mumkin.

**Image**-rasm tugmasini yaratuvchi forma obyektini hosil qilish;

**Button** –oddiy tugma yaratish;

**Submit** –ma'lumotlarni yuboruvchi tugma hosil qilish;

**Reset** – tozalash tugmasini yaratish;

**Name –**element nomi;

**Title-** element haqida ma'lumot beruvchi obyekt;

**Value-**elementlarning qiymatini oldindan yozib qo'yish;

**Size-**kiritilayotgan matnning o'lchamini o'rnatish;

**Maxlength** – matnning maksimal o'lchamini kiritish;

**Checked** –false yoki true – checkbox va radio elementlarining jimlikdagi qiymatini ya'ni belgilangan yoki belgilanmaganligini boshqarish;

**Style** –xususiy stil berish, masalan, balandligi yoki kengligini belgilash va h.k;

**Readonly-**matnni faqat o'qish uchun;

**Disabled** –element taqiqlangan;

**Accept** –mumkin bo'lgan fayllar tiplari;

**Onfocus** –element fokuslanganda yuz beradi;

**Onblur-**element fokusi yo'qolganda sodir bo'ladi;

**Onselect –**element matni tanlanganda;

**Onchange –**element qiymati o'zgarganda;

**Onclick** –element bosilganda;

***<OL>… </OL>-*** (Ordered List)- tartiblangan ro'yxat tegi. Bu tegda quyidagi atributlarni ishlatish mumkin:

**Type-** A -Bosh harflar bilan, a- kichik harflarbilan, I,i- Rim raqamlari bilan, 1 –raqamlar bilan (jimlikda).

**Start-** tartiblangan ro'yxatda raqamlardan foydalanishni boshlash;

**Title** –element haqida ma'lumot ko'rsatish;

***<UL>…</UL>***(Unordered List) –tartiblanmagan ro'yxatni yaratish tegi. Tartibsiz ro'yxatning ko'rinishlari turlicha bo'lishi mumkin.

**Type-** Disk - ichi bo'yalgan aylana. Jimlikda.  Circle- Ichi bo'yalmagan aylana, Square –kvadratik.

**Title** –element haqida ma'lumot ko'rsatish;

***<LI>…</LI>-***yopiluvchi tegni yozish majburiy emas. (list Item) –ro'yxat elementlarini kirituvchi teg hisoblanadi. Bu teg tartiblangan (ol) va tartiblanmagan (ul) teglarining ichki tegi hisoblanadi.

***<OPTION>…</OPTION>-*** tegi <select> tegining ichki tegi hisoblanadi. U ro'yxat elementini chiqaruvchi teg hisoblanadi. Bu tegda quyidagi atributlarni ishlatish mumkin:

**Selected**- tanlangan opsiya;

**Value –**opsiya nomi;

**Label –**matn;

**Disabled –**element taqiqlangan.

***<P>…</P>***-yopiluvchi tegni yozish majburiy emas. Bu teg yangi bob yaratish uchun qo’llaniladi, yangi abzats desa ham bo’ladi. Bu tegda quyidagi atributlarni ishlatish mumkin:

**Align**-bobni sahifani qayeridan joylashtirishni ko’rsatish. Left - chapdan joylashtirish. Jimlikda shu qiymatni qabul qiladi. Right - o’ng tomondan joylashtirish. Center - markazdan joylashtirish. Justify - o’lchamiga qarab joylashtirish.

**Title** –bob haqida ma’lumot ko’rsatish.

***<PRE>…</PRE>***-yopiluvchi tegni yozish mjburiy. Bu teg orasiga kiritgan ma’lumotimizni qanday yozgan bo’lsak, xuddi shunday tartibda chiqarib beradi. Masalan, <p> salom        dunyo</p> deb yozsak natija **salom dunyo** deb chiqsa,

<pre> salom        dunyo</pre> deb yozsak, natija **salom        dunyo** bo’lib chiqadi.

ASP (Active Server Pages). Bu WWW sahifalarni tezkor va oson ishlab chiqish uchun Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqilgan kuchli texnologiyadir. ASP Windows NT va IIS (Internet Information Server), platformalarida ishlaydi.

ASP - bu shunday ichki texnologiyaki, uning yordamida Web sahifalarga dasturlarni bog’lash mumkin. ASP ning yutug’i skriptli tillar (Visual Basic Script yoki Java Script) va tashqi COM komponentlarini qo`llay olishi hisoblanadi.

VBScriptda strukturalangan dasturlash uchun barcha konstruktsiyalar(if, while, case, etc) mavjud. Undan tashqari bu tilda o`zgaruvchilar (qaysi tipga tegishli ekanligini ko`rsatmasa ham bo`ladi)bor. Ob`ektlarni qo`llab - quvvatlaydi. Ular bilan ishlash oddiygina - Object.Property, Object.Method. Yana bir nechta qo`shimcha ob`ektlar ham mavjud (Request, Response, Session, Server, Connection, Recordset). Undan tashqari dasturchining o`zi ham kerakli komponentlarni o`rnatishi mumkin masalan elektron pochta bilan ishlayotganda "Ko`chirib olish, sotib olish... ". [5]

**ASP texnologiyasida chiqarish buyrug’i**

Foydalanuvchiga ko`rsatilishi kerak bo`lgan ma`lumotlar HTML tili yordamida chiqariluvchi potokka tashlanadi. Foydalanuvchi brauzeri bu HTML potokni interpretatsiyalaydi. Ma`lumot chiqarishni yengillashtirish uchun Response. Obyekti mavjud. Chiqarishni esa Write metodi yordamida amalga oshiriladi. Masalan:

Response.Write ("<h2> Salom dunyo </h2>").

Bu yo`l bilan Response obyektining ichki buferiga yozish amali bajariladi. Skript ishini yakunlagandan so`ng, bufer to`laligicha klientga beriladi. Shuni aytib o`tish kerakki, mijoz "top - toza" HTML ni oladi, va asosiysi - buning natijasida ASP dasturlari mijozning dasturiy ta`minotiga umuman bog'liq bo`lmaydi. Response obyektining boshqa metod va xususiyatlari chiqarishni boshqarishni ta`minlab beradi. Masalan Response.Buffer metodi mijoz ma`lumotlarni Response obyekti yordamida olyaptimi yoki sahifa yakuniga ko`ra hammasini o`qish - o`qimasligini boshqarib turadi. Response. Redirect metodi mijoz brauzerini boshqa sahifaga yo`llaydi. Bu metoddan foydalanilganda, ungacha sahifada Response.Write metodi qo`llamaslik kerak.

**ASP texnologiyasida kiritish buyrug'i**

ASP da tuzilgan dastur foydalanuvchidan to`g'ridan - to`g'ri biror nima haqida so`ray olmaydi. U ma`lumotlarni boshqa sahifalardan yoki URL manzilidan olishi mumkin. Beriladigan ma`lumotlar chiqariluvchi potokka joylashtiriladi va Ruquest obyekti yordamida qabul qilinadi. Var o`zgaruvchisining qiymatini test.asp dasturiga berish uchun quyidagi jumlani yozish kerak bo`ladi:

test.asp?var=abc

Dasturdan o`zgaruvchining qiymatini olish uchun quyidagi kodni yozishimiz kerak:

var = Request("var")

Agar o`zgaruvchilar bittadan ko`p bo`lsa, ular & belgisi yordamida ajratiladi:

test.asp?var1=abc&var2=def

